

LMS ta'limning boshqaruv tizimining bugungi kundagi islohotlari

Akbar Shuhratovich Kodirov
ORCID: 0000-0002-3656-5770
akbar2005ak@gmail.com
Gulsanam Shahriyor-qizi Eshpo'latova
gulsanameshpulatova0@gmail.com
Husnora Zafar-qizi Qodirova
husnoraqodirova17@gmail.com
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan LMS (Learning Management System) platformalarining nazariy asoslari, funksional imkoniyatlari hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyati keng yoritilgan. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida masofaviy ta'limni samarali tashkil etishda LMS tizimlarining o'rni beqiyos ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Maqolada LMS platformalarining ularning o'ziga xos xususiyatlari va afzalliklari tahlil qilingan. Shuningdek, o'quv jarayonini boshqarishda, bilimlarni nazorat qilishda hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi interaktiv aloqani ta'minlashda LMS tizimlarining imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, maqolada Google Classroom platformasidan foydalanish bo'yicha amaliy tajriba bayon etilib, uning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar: LMS, masofaviy ta'lim, elektron ta'lim, aralash ta'lim, Google Classroom, ta'lim texnologiyalari, onlayn platforma, pedagogika

LMS Education Management System Reforms Today

Akbar Shuhratovich Kodirov
ORCID: 0000-0002-3656-5770
akbar2005ak@gmail.com
Gulsanam Shahriyor-qizi Eshpo'latova
gulsanameshpulatova0@gmail.com
Husnora Zafar-qizi Qodirova
husnoraqodirova17@gmail.com
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: This scientific article extensively covers the theoretical foundations, functional capabilities, and importance of LMS (Learning Management System) platforms widely used in the modern education system. The scientific justification for the incomparable role of LMS systems in the effective organization of distance learning in the context of the rapid development of digital technologies is provided. The article analyzes the specific features and advantages of LMS platforms. The possibilities of LMS systems in managing the educational process, controlling knowledge, and ensuring interactive communication between teachers and students are also shown. In addition, the article describes practical experience in using the Google Classroom platform and reveals its role in increasing educational efficiency.

Keywords: LMS, distance learning, e-learning, blended learning, Google Classroom, educational technologies, online platform, pedagogy

Kirish: Hozirgi kunda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar keng joriy etilmoqda. Ayniqsa, masofaviy ta'lim shaklining rivojlanishi natijasida ta'limni boshqarish tizimlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan LMS (Learning Management System) platformalari muhim ahamiyat kasb etadi. LMS - bu o'quv jarayonini tashkil etish, nazorat qilish va boshqarish imkonini beruvchi dasturiy tizim hisoblanadi. U orqali o'qituvchi va talabalar o'rtasida samarali muloqot, bilim almashish hamda baholash jarayoni amalga oshiriladi. Mazkur maqolaning maqsadi - LMS tizimlarining ta'limdagi o'rni va ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdir. Ta'limni boshqaruv tizimlari (LMS - Learning management systems) - bilim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun mo'ljallangan videodars, ma'ruza materiallari, taqdimot, kitob va o'quv materiallari majmuasidan iborat muloqot rejimida ishlay oladigan inson-mashina majmuasi yoki masofaviy ta'lim shakli. Ushbu tizimlar, asosan e-learning (elektron ta'lim) va blended learning (aralash o'qitish) kabi yangi ta'lim usullarining rivojlanishi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi PQ-4307-son qarorida ta'lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.[1] Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish zarurligini ta'kidlaydi. Xususan, ta'lim jarayoniga raqamli platformalarni, jumladan, masofaviy o'qitish tizimlarini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Bu esa LMS tizimlarining joriy etilishi va rivojlanishiga asos yaratadi. Hozirgi kunda LMS lar ta'lim tashkilotlarida va korporativ o'qitish muhitlarida keng qo'llanilmoqda, bu esa o'quv jarayonini yanada samarali va qulay qilishga yordam beradi. Ta'limni boshqaruv tizimlarining ahamiyati shunchalik katta bo'lib, ular ta'lim muassasalari uchun o'quv materiallarini yetkazish, o'quvchilarni kuzatish va resurslarni markazlashtirish imkoniyatini beradi. Saidahmedov va boshqalar LMS tizimlarini zamonaviy pedagogik

texnologiyalarning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi.[4, 45-60]. LMS tizimlari bo'yicha ilmiy qarashlar ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Jumladan, Tony Bates LMS platformalarini zamonaviy raqamli ta'limning asosiy vositalaridan biri sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, LMS tizimlari o'quv jarayonini faqatgina material yetkazib berish bilan cheklab qolmay, balki ta'limni boshqarish, monitoring qilish va baholash imkoniyatlarini ham yaratadi. Shuningdek, LMS platformalari orqali o'quvchilarning mustaqil o'rganish faoliyati rivojlanadi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot yangi bosqichga ko'tariladi.[5, 200-220] Shu bilan birga, global LMS bozorining 2026-yilga kelib 38 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda, bu esa onlayn ta'lim yechimlariga bo'lgan talabning oshishiga ishora qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jarayonda Learning Management System (LMS) - ya'ni ta'limni boshqaruv tizimlari ta'lim jarayonini raqamlashtirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. LMS - bu o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish va monitoring qilish imkonini beruvchi dasturiy platformadir. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda Learning Management System (LMS) tizimlari alohida ahamiyat kasb etadi. LMS tizimlarini rivojlantirishda davlatning normativ-huquqiy hujjatlari muhim asos bo'lib xizmat qiladi. LMSni joriy etishda normativ-huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ta'lim jarayonini raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlari belgilangan. LMS tizimining ta'limdagi ahamiyati: LMS tizimlari zamonaviy ta'lim jarayonida quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ta'lim jarayonini markazlashgan boshqarish;
- elektron o'quv materiallariga tezkor kirish;
- bilimni avtomatik baholash;
- masofaviy ta'limni tashkil etish;
- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqot;

Bu esa ta'lim samaradorligini oshiradi va vaqtni tejaydi.[3, PQ-591] LMS elektron ta'lim platformasidir. Uning ishining asosiy tamoyillarini qisqartmaning o'zida ko'rish mumkin. O'rganish - ta'lim olish. LMS yordamida siz elektron kurslar va o'quv materiallarining yagona ma'lumotlar bazasini yaratasisiz. Bunday ma'lumotlar bazasi sizning mavzuingiz bo'yicha haqiqiy bilim xazinasidir. Menejment - boshqaruv. Kurslar bilan bir qatorda, talabalarni LMSda ham boshqarish mumkin. Fayl almashishdan farqli o'laroq, LMS shunchaki fayllarni tashkil qilish emas, balki jarayonni boshqarishingiz mumkin bo'lgan yaxshi tashkil etilgan tizimdir. System -

elektron tizim. LMS o'qituvchining o'rniga har bir o'quvchi berilgan topshiriq yoki testni qancha vaqtda va qanday topshirganini tekshirib boradi. Raqamli texnologiyalarni rivojlanishi internet orqali masofadan o'qish imkoniyatini kengaytirib yubordi. Masofadan turib onlayn o'qish ta'lim olishning innovatsion va qiziqarli usuli hisoblanadi. Bunda o'quvchi mustaqil tarzda ta'lim oladi, bilimlarni o'zlashtiradi, o'z - o'zini nazorat qiladi, mustaqil fikrlaydi va xulosa chiqaradi. LMS tizimlari orqali o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yangi bosqichga ko'tariladi. Ushbu tizimlar o'quv materiallarini markazlashgan holda saqlash, ularni tizimli ravishda taqdim etish hamda ta'lim jarayonini nazorat qilish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonining samaradorligi va sifat darajasi oshadi. Ushbu tizimlar pedagogik jarayonni raqamlashtirish orqali ta'limning sifat ko'rsatkichlarini yangi bosqichga olib chiqadi.

Ilmiy adabiyotlarda LMS tizimlari bir nechta mezonlar asosida tasniflanadi. Eng keng tarqalgan tasniflash quyidagilardan iborat:

Birinchidan, texnologik asosiga ko'ra LMS tizimlari: lokal (an'anaviy) LMS - muassasa serverlarida o'rnatiladi va ichki tarmoq orqali ishlaydi; bulutli LMS (Cloud-based LMS) - internet orqali ishlaydi, server va texnik xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Bu esa foydalanuvchilarga qulaylik yaratadi hamda texnik xarajatlarni kamaytiradi. [6, 8-15 betlar].


Ikkinchidan, dasturiy ochiqlik darajasiga ko'ra: ochiq kodli LMS - foydalanuvchi tomonidan erkin o'zgartiriladi (moslashuvchanligi yuqori); yopiq (tijorat) LMS - ishlab chiqaruvchi kompaniya tomonidan boshqariladi, texnik qo'llab-quvvatlash kuchli. [3, 25-30]

Uchinchidan, funksional yo'nalishiga ko'ra: akademik LMS - maktab, kollej va oliy ta'lim uchun; korporativ LMS - xodimlarni o'qitish va malaka oshirish uchun mo'ljallangan. Mazkur tasnif LMS tizimlarining moslashuvchanligi va turli ta'lim muhitlarida qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

LMS tizimlarining joriy etilishi ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Eng avvalo, ta'lim jarayoni individuallashtiriladi, ya'ni har bir o'quvchi o'z tezligida bilim olishi mumkin. Bu esa o'zlashtirish darajasini oshiradi. Ayniqsa, global pandemiya sharoitida ushbu tizimlar ta'limning uzluksizligini ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, LMS orqali o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanadi, ta'lim jarayoni ochiq va shaffof bo'ladi. Bu esa ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. LMS platformalarining joriy etilishi ta'lim jarayonida bir qator ijobiy natijalarni yuzaga keltirmoqda. Avvalo, LMS tizimlari ta'lim resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Bir marta yaratilgan o'quv materialini ko'p marotaba foydalanilishi mumkin bo'lib, bu vaqt va iqtisodiy resurslarni tejaydi. Yana bir muhim jihat - baholash tizimining avtomatlashtirilishi. Testlar va topshiriqlarni avtomatik tekshirish orqali baholash jarayonida subyektivlik kamayadi,

natijada adolatli va shaffof tizim shakllanadi. Bundan tashqari, LMS tizimlari ta'lim jarayonini monitoring qilish va analitik tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa pedagoglarga o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va o'qitish strategiyasini takomillashtirishga yordam beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqotlar LMS tizimlarining samaradorligini tasdiqlamoqda. Masalan, oliy ta'lim tashkilotlarida o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda LMS platformasidan foydalangan guruh talabalari an'anaviy usulda ta'lim olgan guruhlariga nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatgan. Buning asosiy sababi sifatida interaktivlik, mustaqil ishlash imkoniyati va doimiy nazorat omillari ko'rsatiladi. Shuningdek, maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida ham LMS elementlarini qo'llash orqali bolalarning qiziqishi va faolligi oshgani kuzatilgan. Ayniqsa, multimediyalar va o'yin elementlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. Pandemiya davrida esa LMS tizimlari global miqyosda sinovdan o'tdi va o'zining yuqori samaradorligini namoyon etdi. Ko'plab ta'lim muassasalari qisqa vaqt ichida masofaviy ta'limga o'tib, LMS orqali o'quv jarayonini uzluksiz davom ettirishga muvaffaq bo'ldi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari Learning Management System (LMS) platformalarining ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, Blessy Doe va K.Vivekanandan (2022) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda LMS orqali tashkil etilgan o'quv kurslarining samaradorligi foydalanuvchi tajribasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Tadqiqotda 400 dan ortiq ishtirokchilar jalb etilib, natijalar shuni ko'rsatdiki, LMS platformasining interfeys qulayligi, kontentning sifatli tashkil etilishi hamda interaktiv elementlarning mavjudligi o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, vizual va multimedia materiallardan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qilgan. [5, 140-147] Bundan tashqari, Nasrin Sayfour (2016) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda talabalar LMS tizimlariga bo'lgan munosabati va ularning o'quv jarayonidagi roli o'rganilgan. Tadqiqot natijalari LMS platformalari o'quv materiallariga tezkor kirish, mustaqil ishlash imkoniyati va ta'lim jarayonining qulay tashkil etilishini ta'minlashini ko'rsatgan. Shu bilan birga, ayrim texnik muammolar va internetga bog'liqlik kabi kamchiliklar ham aniqlangan, bu esa LMS tizimlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. [6, 318- 322]



1-rasm.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini o'rganish doirasida Mohammad Rejaul Karim tomonidan Google Classroom platformasidan foydalanish samaradorligi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borilgan. Tadqiqotda loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) usuli Google Classroom bilan integratsiya qilinib, talabalar bilim darajasiga ta'siri eksperimental tarzda o'rganilgan. Mazkur tadqiqot kvazi-eksperimental usulda tashkil etilib, unda talabalar ikki guruhga ajratilgan: tajriba guruhi va nazorat guruhi. Tajriba guruhida darslar Google Classroom orqali olib borilgan bo'lsa, nazorat guruhida an'anaviy usul qo'llanilgan. Dastlabki (pre-test) natijalarda ikki guruh o'rtasida sezilarli farq kuzatilmagan bo'lsa-da, yakuniy (post-test) natijalar tajriba guruhida sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Google Classroom platformasi:

- talabalar yozma nutqini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.
- o'quv jarayonida interfaollikni oshirgan.
- mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantirgan.

Shuningdek, tadqiqotda ta'kidlanishicha, ushbu platforma orqali tashkil etilgan ta'lim jarayonida talabalar faolroq ishtirok etgan va real hayotga yaqin vazifalar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniga ega bo'lgan. Yuqoridagi ilmiy tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, Google Classroom platformasi asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq bo'lib, o'quvchilarning bilim darajasi va faolligini oshirishga xizmat qiladi. Karim (2023) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Google Classroom platformasi asosida tashkil etilgan darslar talabalarning yozma nutqini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlangan. [7, 45-58] Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba guruhida o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Zamonaviy tadqiqotlarda ham LMS tizimlarining samaradorligi tasdiqlanmoqda. Xususan, 2024-yilda o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda talabalar LMS asosida tashkil etilgan darslarni yuqori darajada samarali deb baholagan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalar LMS orqali ta'lim olish jarayonida moslashuvchanlik, qulaylik va mustaqil ishlash imkoniyatlarining ortganini qayd etganlar. Bu esa LMS platformalarining zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar: LMS platformalari orqali ta'lim jarayoni avtomatlashtiriladi, o'quv materiallari markazlashgan holda taqdim etiladi hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv aloqa yuqori darajaga ko'tariladi. Shu bilan birga, LMS tizimlarini joriy etish doirasida o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, ta'lim resurslarini elektron shaklda yaratish va yangilab borish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa ta'lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qiladi. Zamonaviy islohotlar natijasida LMS tizimlari nafaqat texnik vosita, balki ta'limni boshqarishning innovatsion modeli sifatida shakllanmoqda. Ular ta'lim jarayonini individuallashtirish, moslashuvchanlikni

ta'minlash hamda global ta'lim makoniga integratsiyalashuv imkoniyatlarini kengaytiradi. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, LMS tizimlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi, vaqt va resurslarni tejaydi hamda o'qitish jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirgan holda aralash (blended learning) ta'lim modelini joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim muhitini shakllantirish maqsadida LMS platformalaridan, xususan Google Classroom tizimidan keng foydalanishni yo'lga qo'yish zarur deb hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, LMS tizimlari zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini optimallashtirish va raqamli ta'lim muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Kelgusida ushbu tizimlarni yanada takomillashtirish va ta'lim amaliyotiga keng joriy etish O'zbekiston ta'lim tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi. Learning Management System (LMS) tizimlari zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Ular ta'lim jarayonini raqamlashtirish, boshqarish va nazorat qilish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida o'zining dolzarbligini namoyon etmoqda. LMS platformalari yordamida o'quv jarayonini tashkil etishning yangi, innovatsion shakllari yuzaga kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2019-yil 20 - apreldagi "Ta'lim tizimi raqamlashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4307 son Qarori.
2. 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" VMQ- 591 Qarori.
3. Klark Quinn "The Mobile Academy: m-Learning for Higher Education" AQSH. 2011-yil (25-30 betlar).
4. N.Saidahmedov "Zamonaviy pedagogik texnologiyalar" o'quv qo'llanma T. 2020-yil (45-60 betlar).
5. Tony Bates "Teaching in a Digital Age" o'quv qo'llanma Kanada. 2019-yil. (200-220 betlar, 140-147 betlar).
6. William Horton "E-learning by Design" AQSH. 2012-yil.(8-15 betlar, 318-322 betlar).
7. "The Effect of Using Google Classroom on EFL Learners' Writing Performance through Project-Based Learning" xalqaro jurnal AQSh. 2023-yil . (45-58 betlar).
8. Kodirov, Akbar, Gulasal Ruziyeva, and Marjona Yusupova. "ELEKTRON QO'LLANMALAR YARATISHDA AUTOPLAY DASTURIDAN FOYDALANISH VA IMKONIYATLARINI TA'LIM TIZIMDA TALQIN ETISH." Универсальная индексная библиотека науки и техники в современном мире 3.4 (2024): 51-55.

9. Sh, Kodirov A. "THE ROLE OF THE" ONE MILLION UZBEK PROGRAMMERS" PROJECT IN INTRODUCING THE YOUTH OF OUR COUNTRY TO THE IT ENVIRONMENT ACCORDING TO THE" DIGITAL UZBEKISTAN 2030" STRATEGY." Экономика и социум 10-1 (125) (2024): 205-211.

10. Kodirov, Akbar, and Aziza Mannonova. "PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR." Универсальный индекс библиотеки молодых ученых 3.35 (2025): 119-121.

11. Kodirov, Akbar, and Farida Boqiyeva. "LMSNING HEMIS TIZIMIDA ANAMIYATI." Универсальный индекс библиотеки молодых ученых 3.35 (2025): 125-127.

12. Raximova, A., and A. Kodirov. "PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR. VIRTUAL LABORATORIYALAR VA SIMULYATORLAR." Универсальный индекс библиотеки науки и инноваций 3.36 (2025): 132-134.